

FRIDRIX NITSHENING FALSAFIY-ANTROPOLOGIK QARASHLARIDA “A’LO ODAM” VA “SO’NGGI INSON” KONSEPSIYASINING QIYOSIY TAHLILI

Mannobova Munisa O’ktamjon qizi

TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

1-kurs magistranti

munisamannobova03@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Ikramova I.R.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Fridrix Nitshe falsafasidagi ikki markaziy antropologik konsepsiya – a’lo odam va so’nggi inson tushunchalarining qiyosiy tahlilini o’z ichiga oladi. Tadqiqotda mazkur tiplardan biriga ega insonlarning iroda masalasi, axloq va qadriyatlari, o’z erkiga bo’lgan munosabati Nitshe qarashlarida namoyon bo’ladi. A’lo odamning o’z-o’zini yenguvchi, qadriyatlari bilan yashovchi jihatlarini ko’rib o’tilsa, so’nggi odamning maqsadsiz hayot kechiruvchi obrazi orqali ikkisi qiyoslanadi.

Kalit so’zlar: *Fridrix Nitshe, “Zardusht tavallosi”, a’lo odam, so’nggi inson, nigilizm (nihilizm), o’z-o’zini yengish, qadriyat.*

ABSTRACT

This article contains a comparative analysis of two central anthropological concepts in the philosophy of Friedrich Nietzsche - the concepts of the ideal man and the last man. In the study, the issue of will, morality and values, and the attitude of people with one of these types to their own will are reflected in Nietzsche's views. While the self-defeating aspects of the ideal man, who lives by his values, are examined, the two are compared through the image of the last man, who lives aimlessly.

Keywords: *Friedrich Nietzsche, "Thus Spoke Zarathustra", the ideal man, the last man, nihilism (nihilism), self-defeat, value.*

KIRISH

XIX asr ilm-fan, geografik va madaniy aloqalar ta’sirlashgan davr hisoblanadi. Ushbu davrda nigilizm tushunchasi eng yuqori cho’qqiga chiqqan masala bo’lib qoladi. “Ushbu nazariyaning eng mashhur vakili Fridrix Vilgelim Nitshe nigilizm falsafasini o’zining “Zardusht tavallosi” va “Hokimiyat irodasi” asarlarida ilgari

suradi”¹. Bundan tashqari “Insonga xos, haddan tashqari insonga xos”, “Axloqning mohiyati” va shu kabi bir qancha asarlari buning yorqin namunasi. Faylasuf ushbu asarlari orqali inson tabiatini, qadriyatlarini va madaniyatini ilmiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qilar ekan zamonaviy davrning sotsiologik va etik masalalariga urg‘u berdi. Ayniqsa uning “Zardusht tavallosi” asari uning qarama-qarshi g‘oyalar ichidagi vaziyatini tasvirlab beradi. Xususan, bir jihatdan insonning o‘z qadriyatlarini qayta yaratishga qodir bo‘lgan, yuksalib boruvchi “a’lo odam” siymosi tursa, bir tarafdin ma’naviy va ruhiy passiv bo‘lgan zaif “so‘nggi odam” timsoli turadi. Bu ikki jihatning yuzaga kelishida qanday holatlar bo‘lishi, insonlar qanday jarayonlardan o‘tishi, nega insoniyat bunday holatga kelib qolganligi, insonlar diniy qarashlarida qaysi nuqtaga qadar yetib keldi singari muammoli vaziyatlar yoritiladi.

TAHLIL VA METODLAR

Nitshe falsafasining antropologik mohiyatida insonning mavjud holatini emas, balki uning qanday inson bo‘lishi kerakligi ochib beriladi. Uning nazdida inson tugallanmagan mavjudot emas, aksincha “hayvon va a’lo odam o‘rtasidagi ko‘prik” vazifasini bajaradi. Shu sababli tadqiqot davomida insonning ruhiy yuksalishi va ma’naviy tanazzulga yuz tutishi masalalari a’lo odam va so‘nggi odam timsollari orqali tahlil etiladi.

Mazkur maqolani tadqiq etishda tarixiy-falsafiy, qiyosiy, germenevtik va konseptual metodlardan foydalanildi. Ya’ni, tarixiy-falsafiy metodi orqali Nitshening antropologik qarashlari XIX asr Yevropa madaniyati va falsafiy tafakkuri doirasida o‘rganildi. Ushbu metod faylasuf g‘oyalarining qay tarzda vujudga kelganligini va jamiyat bilan bog‘liqligini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda qiyosiy metoddan foydalanildi va bu orqali “a’lo odam” va “so‘nggi inson” konsepsiyalarining o‘ziga xos jihatlari, axloqiy mazmuni o‘zaro taqqoslandi. Tushunchalar orasidagi bog‘liqlik jihatlari konseptual metodi orqali tahlil qilindi va bu tahlillar davomida germenevtik metod qo‘llandi.

NATIJAR VA MULOHAZALAR

Nemis faylasufi Fridrix Nitshening “Zardusht tavallosi” asari xuddiki mifologiya va psixologiya aralash insonni tafakkuriy jihatining murakkab namunalaridan biridir. Asarga epigraf qilib olingan quyidagi jummalarning o‘zida chuqur falsafa jamlangan. *Kimda-kim eng yuksak tog‘larga ko‘tarila olsa, u sahna va hayotning har qanday fojiasi ustidan kula biladi.* Bu aynan metafizik va eng kuchli ma’noga ega nuqtadir. Umumiy tarzda baholaganimizda ushbu jumla insonning ruhiy yuksakligi va bu yuksaklikdan dunyoga nazar solishning natijasini ifoda etadi.

¹ Düniamalyeva S. Nihilizm fəlsəfəsinin xüsusiyyətləri və onun ədəbi əsərlərdə izləri // Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi, 2026. – P. 1.

Agarda bu fikrlarni bo‘laklarga bo‘lgan holatda tahlil qilsak quyidagicha izohlashimiz mumkin: a) *yuksak tog‘lar* – bu erkinlik ramzidir. Insonning yolg‘iz qolishi va jamiyatdan xalos bo‘lishi. Bu albatta salbiy ma’noda insonning o‘zini cheklashi emas, irodasini yuksaklatgan va o‘z ustida ishlab jamiyatning kichik tashvishlaridan qutulishdir. Bu “komil inson” yo‘lidek. Bu natijaga erishgan inson yuksaklikka chiqa oladi; b) *sahna va hayot fojiasi* – Nitshe hayotning jarayonlariga teatr kabi baho beradi. Borliqning berganlari yuqoriga chiqqan inson uchun zarurat va rang-barang hayotni ifodalasa, pastda qolgan inson uchun xatolik, oxirat va umumiy tarzda fojining o‘zidir; d) *ustidan kula olish holati* – bu aynan yuksaklikka erishgan insonning g‘alabasi timsoli bo‘lib, bunda inson hayotning har qanday holatida kuchli bo‘la oladi. Ya’ni, qo‘rquvning sinishi.

Asardagi ikki markaziy tushuncha asarning qiymatini yanada oshiradi. Ya’ni, a’lo odam va so‘nggi inson tushunchalari. Dastavval a’lo odam konsepsiyasining falsafiy tahlilini ko‘rib o‘tsak. Zardushtning o‘z yurtini tark etishi va tog‘lar bag‘riga chiqib ketishi shunchaki jarayon emas, balki a’lo odamning jihatlaridan biri bo‘lgan ichki “men”ni anglashi bosqichidir. Tog‘lar esa yuksaklikka intilish, tafakkur va yolg‘izlik bo‘lib, Zardusht ana shu yuksaklikda oddiy payg‘ambar bo‘lib qolmay, balki yangi qadriyatlarni yuzaga chiqaruvchi inson sifatida tasvirlanadi. Zardushtning quyoshga qilgan murojaatlarida a’lo odamning o‘z ichki qudratini boshqalarga ulasha olish g‘oyasi ilgari suriladi. “Ey Mashriq shahi! Agar munavvar shu’lalaringga intizorlar bo‘lmasa, sening baxt-iqboling nimaga ham arzirdi!”². Ya’ni, quyoshning nurlarini faqatgina uning mazmunini anglovchi mavjudotlarga his eta olishini, quyosh nurini sochishini aytgan Zardusht jamiyat uchun quyosh singaridir. U ham o‘zida bor barcha ne’matlarni insonlarga bera oladigan shaxsdir. A’lo odamda bo‘lishi zarur bo‘lgan yana ikki jihat ilon va burgut ramzlari orqali asoslanadi. Shubhasizki, burgut yuksaklik, erkinlik va iroda timsoli, ilon esa qadimda donolik va sirli bo‘lgan yuqori bilimning ramzini ifoda etgan. Nitshe aynan mana shu ikki jihatni a’lo odamda qudrat va donolik birligi sifatida namoyon bo‘lishi kerakligini aytadi. “Boq! Men haddan ortiq bol to‘plagan asalari singari o‘z donoligidan o‘zim to‘yib ketdim”³. Buyerda haddan tashqari bol to‘plagan asalari Zardushtning uzoq yillik to‘plagan tafakkur va ruhiy kamolotining belgisidir. Zardusht ham mana shu donoligini insonlarga ulashishni xohlaydi. Zardushtning tog‘lardan pastga tushishi yoki “botishi”ning ilk bosqichlarida u qari chol bilan suhbatlashar ekan, ikkisining suhbat davomida sadaqa qilish orasidagi masalada “Men sadaqa bermayman. Buning

² Фридрих Н. Зардўшт таваллоси. Таржимон: Иброҳим Ғафуров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2025 йил. – Б. 3.

³ Ўша манба. – Б. 4.

uchun unchalar qashshoq emasman”⁴ degan fikrni aytgan Zardusht moddiy jihatdan hech vaqosi yo‘q bo‘lsa-da, insonda ma’naviy boylik yuqori bo‘lishi mumkinligini asoslab beradi.

Zardusht va cholning suhbatlarida yana bir jihat ko‘zga tashlanadi. Bu insonlarning jamiyatdan uzilib qolganligi, o‘rtada ishonchning yoqolganligidir. Jamiyat ma’naviy jihatdan sust ekanligi va haqiqatni qabul qilishga hali tayyor emasligi, Xudoni va dinni qabul qilish qiyin jarayonga aylanganligi seziladi. “Axir allaqachon, Xudo o‘lgan!”⁵. Nitshening eng mashhur g‘oyasi keltrilgan ushbu asarda Xudoning o‘limi jismoniy holatni emas, balki qadriyatlarning inson hayotidan o‘z kuchini yo‘qotganligini anglatadi. Shundan so‘ng Zardusht xalqqa a‘lo odam haqidagi ta‘limotni yetkazadi. Insonni hayvoniy tabiatidan qutulishi, maymun va odam o‘rtasidagi qiyos insonni aynan ma’naviy o‘sib borish evolutsiyasini bildiradi. Maymunning inson oldida qanday kulgili holatda bo‘lishi, insonlarni ham a‘lo odam oldida shunday vaziyatda qolishini anglatadi.

Asarning “O‘z-o‘zini yengish zikri” qismida iroda, hayot va qadriyat masalalari yetarlicha yoritilib beriladi. Nitshega ko‘ra haqiqat inson irodasining mahsuli bo‘lsa, borliqni qabul qilish insonning o‘ziga moslashtirib olgan dunyoqarashidir. Ya‘ni, inson borliqni ham ko‘rib turganidek qabul qilmaydi, balki o‘z tanloviga ko‘ra uni tartibga solish va moslashtirishga intiladi. Shuning uchun Nitshe erkinlikni insonning ichki olamiga qo‘yadi. Borliqni bo‘ysundirish orqali inson hech qachon erkin bo‘lmaydi, nafaqat u o‘zining ichki olamini bo‘ysundirish orqali erkin bo‘lishi mumkindir. Bu insonni o‘zini-o‘zi yengishi va a‘lo odomga olib boruvchi shartdir. Shuningdek, an’anaviy axloq borasida ham fikr yuritilar ekan, yaxshilik va yomonlikning mutlaq emas va ular ham iroda erkinligining yaratgan jihatlaridan biridir. Shu bois inson tayyor qadriyatlarga bo‘ysunib, ergashib yashamasdan yangi ma’nolarni va o‘zligini yaratmog‘i lozim.

Insonning o‘zini anglashi borasida tuya, sher va bola obrazlari ham alohida o‘ringa ega. “Nitshe tuya deganda Xudoga ishonadigan, an’anaviy qadriyatlarning og‘ir yukini ko‘taradigan itoatkor odamni tushunadi”⁶ va bu inson hayotining dastlabki bosqichida jamiyat, din, axloq va an‘ana yukini inson “tuya” sigari ko‘tara olishi kerak. Tuyaning qadriyatlari esa “shart, zarur va kerak” tushunchalari bo‘lib tuya og‘irlik orqali o‘z sabrini sinaydi. Inson ham xuddi shunday. Tanlagan yo‘lida sabrli bo‘lishi kerak. Sher esa erkinlik va inkor etish ramzidir. “U “behuda mehnat qilganini”, tuya kabi bunday hayot chinakam insoniy hayotga umuman mos

⁴ Фридрих Н. Зардўшт таваллоси. Таржимон: Иброҳим Ғафуров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2025 йил. – Б. 5.

⁵ Ўша манба. – Б. 6.

⁶ George Sibashvili. The Problem of the Will to Power and the “Owerman” in the Philosophy of Nietzsche//International Multidisciplinary Journal, 2014, № 2-1. – P. 228.

kelmasligini, asrlar davomida sig‘ingan hamma narsa faqat zulmat va yolg‘on ekanligini anglaydi”⁷. Tuya bosqichidan so‘ng inson o‘zini quldek anglaydi va sherga aylanadi. Haqiqiy kamolotga erishish sherga aylanish bilan yakunlanmaydi. Eski qadriyatlarni rad etadi va yangisini yaratishga harakat qiladi. Bu “bola” bosqichiga olib keladi. Bola ruh timsolidir va u yangilik yarata oladi. Bu uch timsol insondagi ichki evolutsion jarayonlardir. Ya‘ni, inson bo‘ysunib yashashdan erkinlikka o‘tadi va yangilik bera oladi.

A‘lo odam xususida so‘z ketar ekan, asarning “Oliy odam zikri” bo‘limi antropologik yondashuvning mmarkaziy g‘oyasini taqdim etadi. Xususan, inson doimo qulaylik istaydi va tenglikda yashashni xohlaydi. Shu tufayli, Zardusht a‘lo odam haqidagi fikrlarini xalq qabul qila olmasligini anglab yetadi. “Bozorda hech kim oliy odamlarga ishonmaydi”⁸ jumlasini ommaviy madaniyat va so‘nggi inson bilan bog‘liqdir.

So‘nggi inson orqali inson ruhiyatining inqirozi yoritiladi. Insonning eng yuqori maqsadi qay nuqtagacha boradi? Qulay hayot tarzi yoki boshqalar? Fridrix Nitshe falsafasida so‘nggi inson yuksalishni emas, aksincha qulaylik va befarqlikni tanlagan insondir. Bu tushuncha zamonaviy davrda insonlar va jamiyatning ma‘naviy pasayishini anglashda muhim sanaladi. “Bozor pashshalari” deb nomlangan qismida so‘nggi insonning ijtimoiy muhitdagi holatini tasvirlanadi. Bunday “pashshalar” obrazi antropologik jihatdan ommaviy odamlarga mos keladi. Hasad va shubhaga moyil, tashqi ta’sirlarga beriluvchan va ruhiy inqirozga yuz tutgan jamiyatdir. Nitshe nega aynan “pashsha” orqali qiyos berdi? Insonlar orasida so‘nggi inson sifatleri xuddi pashshalar kabi tarqalishi keng uchraydi. Bu g‘iybat va hasad kabi ijtimoiy zaxarlanish omilidir. Bunday toifadagi inson xavf va mas’uliyatdan qochadi, yuksak maqsadlarni rad etadi, faqat qulaylik va xavsizlikni afzal ko‘radi. Qo‘rqoqlik, tilyog‘lamalik va mayda dushmanlik kabi sifatlar asosiy belgilardir. So‘nggi inson psixologik masalasida iroda yana o‘rtaga chiqadi.

So‘nggi inson a‘lo odamga teskari o‘laroq tenglik g‘oyasini mutlaqlashtiradi. Individual mohiyatni inkor etadi. U o‘zgarishni rad etadi va faqat iste‘molchi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli ekzistensial ma‘no yo‘qolib qoladi. Ma‘naviy izlanish yo‘qolgan va hayot tayyor ssenariy asosida yuritiladigan jarayonga o‘xshab qoladi. So‘nggi inson konsepsiyasi insonning evolutsion imkoniyatlarini yo‘qolishi, ommaviy jamiyatda shakllangan sustkashlik va iroda inqiroziga uchragan mavjudotdir. Nitshega ko‘ra omma shaxsni yo‘q qilmaydi, ammo uning ruhiy

⁷ O‘sha manba. – P. 229.

⁸ Фридрих Н. Зардўшт таваллоси. Таржимон: Иброҳим Ғафуров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2025 йил. – Б. 356.

holatiga sezilarli ta'sir o'tkazib qo'ya oladi. Shuning uchun nihilizm ruhiy holat bilan aloqador tarzda ochib beriladi. Ya'ni, inson hayotining ma'no va qadriyatlari zaiflashganda yuzaga keluvchi bu yo'nalish diniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni inkor etadi yoki shubha ostiga qo'yadi. "Nigilistlar tarix davomida mavjud bo'lgan axloqiy va siyosiy qadriyatlarning ahamiyatsizligini ko'rsatishga harakat qilishdi, ilgari shubha bilan qarashdi va dinni inson erkinligiga qarshi element sifatida baholashdi"⁹. Bu yo'nalish Xudo mezonini butunlay inkor etdi va falsafadagi yangi yo'nalishni taqdim qildi. Shuning uchun, Nitshening "Xudo o'ldi" g'oyasi nihilizm ta'siridan vujudga kelgan.

XULOSA

Fridrix Nitshe falsafasidagi a'lo odam va so'nggi inson ikki xil yo'lning ifodasi deya olamiz. Biri taraqqiyot, yuksalish va ijod bo'lsa, ikkinchisi loqaydlik va inqiroz. Bu ikki yo'l insonni o'zini yengishi, mas'uliyati va kuchli iroda bilan yashashga da'vat etadi. Umuman olganda, a'lo odam so'nggi inson timsollari orasidagi farqlar maqsadlarga bog'liq ekanligi ko'rinib turadi. A'lo odam o'zini takomillashtirishga intiladi, so'nggi inson esa mavjud holatdan ortga qaytsa qaytadiki oldinga intilmaydi. Iroda va ichki faollik birinchi odamning xislati, loqaydlik va sustlik esa ikkinchisining oliy jihatidir. Shuningdek, a'lo odam yangi qadriyatlarni yaratadi, ekzistensial jihatdan hayotni kurash va ijod maydoni deb qabul qiladi. So'nggi inson esa tayyor qadriyatlar bilan cheklangan, qulaylikni qidirib yashovchi, shunchaki iste'molchidir. Ikkisi ikki xil ramzga ega bo'lib, a'lo odam yuksalish ramzi va so'nggi inson tanazzul, ma'naviy qashshoqlik ramzini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фридрих Н. Зардүшт таваллоси. Таржимон: Иброҳим Ғафуров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2025 йил. – 432 б.
2. George Sibashvili. The Problem of the Will to Power and the "Overman" in the Philosophy of Nietzsche//International Multidisciplinary Journal, 2014, № 2-1. – P. 226-230.
3. Dünyamalyeva S. Nihilizm fəlsəfəsinin xüsusiyyətləri və onun ədəbi əsərlərdə izləri // Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi, 2026. – P. 1-7.
4. <https://share.google/YZvJkZN5CpfW6cRLv>
5. <https://share.google/QmsZ8g3ISw4q5BBnB>

⁹ Dünyamalyeva S. Nihilizm fəlsəfəsinin xüsusiyyətləri və onun ədəbi əsərlərdə izləri // Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi, 2026. – P. 3.